

O‘ZBEK VA JAHON ADABIYOTI

UO‘K(UDC, УДК): 82.091

AKSILQAHRAMON OHANGRABOSI¹**Axmedova Aziza Komilovna***Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori**O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti**Toshkent, O‘zbekiston**E-mail: eternalworldlanguages@gmail.com**ORCID ID:0000-0003-0310-5601*

ANNOTATSIYA

KALIT SO‘ZLAR

Mazkur maqolada zamonaviy adabiyot va ommaviy madaniyatda aksilqahramon (antiqahramon) obrazining shakllanishi, evolyutsiyasi hamda badiiy talqini tahlil qilinadi. Tadqiqotda badiiy qahramon obrazining turli ijodiy metodlar – romantizm, realizm, naturalizm, modernizm va postmodernizm doirasida qanday o‘zgarib borgani ko‘rib chiqiladi. Ayniqsa, XX–XXI asr adabiyotida an’anaviy qahramon modelining o‘rnini murakkab psixologiyaga ega, axloqiy jihatdan ambivalent aksilqahramonlar egallab borayotgani ta’kidlanadi. Maqolada detektiv romanlar, true crime janri, psixologik triller va modernistik hamda postmodernistik adabiyotdagi aksilqahramonlar misollar orqali yoritiladi. Jumladan, Mario Pyuzoning Maykl Korleone obrazi, Tomas Harrisning Gannibal Lekteri, Patrik Zyuskindning Jan-Batist Grenuyi, Albert Kamyuning Merso obrazi kabi qahramonlar tahlil qilinadi. Shuningdek, aksilqahramon obrazining komikslar, teleseriallar va animatsiyadagi na’munalari ham ko‘rib chiqilib, ularning ommaviy madaniyatdagi jozibasi evolyutsion psixologiya nuqtayi nazaridan izohlanadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, zamonaviy adabiyot va san’atda aksilqahramon inson tabiatining murakkab, ziddiyatli va qorong‘i qatlamlarini ochib beruvchi muhim badiiy obrazga aylangan.

Aksilqahramon, zamonaviy adabiyot, postmodernizm, psixologik triller, true crime, ommaviy madaniyat, psixopat obrazlari, badiiy obraz evolyutsiyasi, antiqahramon tipologiyasi.

Received: January 30, 2026**Accepted:** February 10, 2026**Available online:** May 10, 2026¹ For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Axmedova A. Aksilqahramon ohangrabosi. // Komparativistika (Comparative Studies). — 2026. — Vol.3, № 3(11) — B. 8-19.

THE ALLURE OF THE ANTIHERO

Akhmedova Aziza Komilovna

Doctor of Philosophy in Philological Sciences (PhD)

World Languages University

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: eternalworldlanguages@gmail.com

ORCID ID:0000-0003-0310-5601

ABSTRACT

This article examines the formation, evolution, and artistic interpretation of the antihero in modern literature and popular culture. The study explores how the concept of the literary protagonist has transformed within different artistic movements, including Romanticism, Realism, Naturalism, Modernism, and Postmodernism. Particular attention is paid to the growing prominence of morally ambiguous and psychologically complex antiheroes in twentieth- and twenty-first-century literature, which increasingly replace the traditional heroic model. The paper analyzes examples of antiheroic characters across several genres, such as detective fiction, true crime, psychological thrillers, and modernist and postmodernist narratives. Among the analyzed figures are Michael Corleone from Mario Puzo's *The Godfather*, Hannibal Lecter from Thomas Harris's novels, Jean-Baptiste Grenouille from Patrick Süskind's *Perfume*, and Meursault from Albert Camus's *The Stranger*. The article also discusses representations of antiheroes in comics, television series, and animation, highlighting their growing role in popular culture. Drawing on evolutionary psychology, the study suggests that the fascination with antiheroes reflects a deeper interest in the complex, contradictory, and darker aspects of human nature.

KEYWORDS

Antihero, modern literature, postmodernism, psychological thriller, true crime, popular culture, psychopathic characters, evolution of the literary hero, antihero typology.

ПРИТЯГАТЕЛЬНОСТЬ АНТИГЕРОЯ

Ахмедова Азиза Комиловна

*Доктор философии по филологическим наукам (PhD)**Узбекский государственный университет мировых языков**Ташкент, Узбекистан**E-mail: eternalworldlanguages@gmail.com**ORCID ID:0000-0003-0310-5601*

АННОТАЦИЯ

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

В данной статье рассматривается формирование, эволюция и художественная интерпретация образа антигероя в современной литературе и массовой культуре. Особое внимание уделяется трансформации литературного героя в контексте различных творческих методов — романтизма, реализма, натурализма, модернизма и постмодернизма. Подчеркивается, что в литературе XX–XXI веков традиционный героический персонаж постепенно уступает место сложным и психологически противоречивым антигероям, обладающим моральной амбивалентностью. В статье анализируются примеры антигероев из различных жанров: детективного романа, жанра truecrime, психологического триллера, а также модернистской и постмодернистской прозы. В частности, рассматриваются образы Майкла Корлеоне (Марио Пьюзо), Ганнибала Лектера (Томас Харрис), Жан-Батиста Гренуя (Патрик Зюскинд), Мерсо (Альбер Камю) и других персонажей. Кроме того, исследуется распространение модели антигероя в комиксах, телесериалах и анимации. Популярность подобных персонажей интерпретируется с точки зрения эволюционной психологии. Делается вывод о том, что в современной культуре антигерой становится ключевой фигурой, позволяющей глубже раскрыть противоречивую и темную сторону человеческой природы.

Антигерой,
современная литература,
постмодернизм,
психологический триллер,
truecrime, массовая культура,
образ психопата, эволюция
литературного героя,
типология антигероя.

KIRISH

Yigirmanchi va yigirma birinchi asr adabiyoti boshqa asrlar adabiyotidan nimasi bilan farqli deyilsa, avvalo badiiy obrazlari bilan deyish mumkin. Asarning joni, ruhi bo‘lmish badiiy obrazlar, xususan, bosh qahramonlar zamonaviy san’atda kuchli evrilishga, o‘zgarish hamda talqinlarga uchramoqda. O‘zgarishlar nimadan iborat ekanligini maqolada ijodiy metodlar, janrlar va adabiyotga yondosh sa’at turlari kesimida ko‘rib chiqildi.

TADQIQOT METODLARI

Yozuvchini voqelikni badiiy tasvirlash usuli bo‘lmish *ijodiy metod* badiiy obrazlarning, xususan, bosh qahramonlarning qanday shaxs bo‘lishini belgilab beradi. Ya’ni ijodiy metodning asosiy xususiyatlari bosh qahramonlarda o‘z aksini topadi. Romantik qahramon romantizm tamoyillari bo‘yicha ideallashtirib tasvirlansa, realistik qahramon esa, real voqelikka obyektiv yondashuv orqali, hayot haqiqatiga sodiqlik bilan badiiy gavdalantiriladi. Klassitsizm qahramonlari albatta antik adabiyot arxetiplari va mifologiyasidan ulgi olib shakllanadi. Naturalizm insonning evolutsiyasini yoki aksincha degradatsiyasini ko‘rsatib beruvchi ijtimoiy vaziyat qurbonlarini tasvirlab bersa, modernizm adabiy qahramon ichki dunyosining eng tub puchmoqlarini, xayollarining eng chekka hududlarini kashf qiladi. O‘tgan asrning 50-60-yillaridan kurtaklay boshlagan postmodernizm adabiyotda uzoq asrlar shakllangan adabiy qahramon tushunchasini butunlay o‘zgartirib yubordi. Adabiy qahramonning yuqorida sanab o‘tilgan ijodiy metodlar bo‘yicha tadrijiy rivoji qiziq bir dinamikani namoyon qiladi: *asrlar osha, ijodiy metodlarning turli karvonlari osha adabiy qahramon aksilqahramonga yo‘l bermoqda*.

ASOSIY QISM

Borgan sari badiiy adabiyotda umuminsoniy qadriyatlarga zid, salbiy xususiyatlari bilan ajralib turuvchi shaxs obrazlari bosh rolga taklif qilinmoqda. Aksilqahramon (antiqahramon) deb asarning g‘oyaviy konsepsiyasini ochishga xizmat qiladigan, markaziy o‘rin egallovchi hamda xarakterida salbiy xususiyatlar yaqqol namoyon bo‘ladigan obrazga aytiladi. Ko‘pchilik klassik asarlarda qahramon (protagonist) va antoganist (dushman tomon) obrazlar asar voqealari davomida muttasil kurashadi. Biroq qator zamonaviy asarlarda antiqahramonning o‘zi asosiy obraz bo‘lib, bunday asarlar yovuzlik va ezgulikning kurashidan ko‘ra ko‘proq ziddiyatli, murakkab psixologiyali aksilqahramonning sarguzashtlarini hikoya qiladi.

Muayyan janrlar kesimida ko‘rib chiqilsa, jumladan, zamonaviy detektiv romanlarda tobora umuminsoniy qadriyatlarga zid, an’anaviy qahramondan ancha farqli obrazlar paydo bo‘lib bormoqda. Jumladan, o‘n to‘qqizinchi asr oxiri yigirmanchi asr boshlarida Agata Kristi, Artur Konan Doyl singari yozuvchilar Marpl xonimdek zukko ayol, Sherlok Xolmsdek kuchli deduktiv tafakkur sohiblarini

yaratib millionlab kitobxonlarning e'tirofiga sazovor bo'lgan edilar. So'nggi o'n yilliklarda vujudga kelgan detektiv asarlarda ideallashgan izquvar qahramonlar o'rniga, aksilqahramonlar – qotillar, jinoyatchilar, mafiya sardorlari markaziy obrazga aylanmoqdalar. “Cho‘qintirgan ota” (1969) asarida Mario Pyuzo AQShning nufuzli mafiya Don Korleoklani haqida hikoya qiladi. Maykl Korleone asardagi eng murakkab va psixologik jihatdan chuqur obrazlardan biridir. Uni Mario Pyuzo antiqahramon tipidagi shaxs sifatida yaratadi. Mayklning ruhiy portreti uning asta-sekin o'zgarib borishi oddiy insondan sovuqqon mafioz yetakchiga aylanishi orqali ochiladi. Dastlab kitobxonlarga tanishtirilganda sodda bo'lgan yosh yigit voqealarning shiddatli silsilasida strategik fikrlaydigan qudratli rahnamo obrazga transformatsiya qiladi. Omma uchun katta jozibaga ega bu obrazning muvaffaqiyatini qator omillar bilan izohlash mumkin. Masalan, Maykl Korleonening qaltis qora dunyoda qudratli shaxsga evrilishi ayrim kitobxonlarni hayajonga solgan bo'lsa, boshqa kitobxonlar guruhini Korleonedagi fojeaviylik, yolg'izlik, kuchli qasos hissi jalb qiladi. “Cho‘qintirgan ota” asariga o'xshagan, kriminal dunyo vakillarini bosh qahramon qilgan asarlar sirasiga Lorentso Karkaterrining “Ganster” (2001), L.E.Doktoroning “Billy Bathgate” (1989), Nikolas Piledjining “Wiseguy” (1985), shuningdek, Tohir Malik qalamiga mansub besh kitobdan iborat “Shaytanat” (1992) romanini qayd etish mumkin. 1990-yillar “Shaytanat” asari o'qirmanlar orasida shu qadar mashhur bo'lgan ediki, o'sha davrda o'g'il bolalarga “Asadbek” ismini qo'yish o'ziga xos “urf”ga aylangan edi.

Amerikalik yozuvchi En Rul (Ann Rule, 1931–2015) real jinoyatlarga asoslangan “**True Crime**” janri qirolichasi hisoblanadi. Psixologiya yo'nalishida ta'lim olganligi, politsiyada uzoq yillik tajribasi Enga jinoiy ishlar asosida o'tkir syujetli, chuqur psixologizmga ega asarlar yaratishga imkoniyat bergan. Enning o'ttizdan ortiq asarlari bo'lib, markaziy qahramon sifatida jinoyat qurbonlari bilan birgalikda seriyali qotillar turadi. Qotil aksilqahramonlarni En psixopat va sotsiopat obrazlar sifatida gavdalantirgan. Jumladan, “The Stranger Beside Me” (“Yonimdagi begona”, 1980) nomli memuar asari Enning o'z hayotiy tajribasiga asoslangan bo'lib, unda Ted Bandy ismli seriali qotilning manfur jinoyatlari hikoya qilinadi. Sietldagi klinikada birga faoliyat olib borgan bo'lsa-da, En hamkasbi Ted shaxsining faqat ishdagi bir tomonini biladi xolos. Tedning yovuz qotil sifatidagi hayoti uni istarali yigitcha deb bilgan kishilarga mutlaqo qorong'u edi. Asar shunisi bilan muhimki, u jinoyatchilarning ijtimoiy yoqimli niqobi bo'lishi mumkinligini hamda mazkur niqob yordamida ular uzoq vaqtgacha sezilmay faoliyat olib borishini tasvirlab bergan.

True Crime janrining sariq matbuot materialidan to'laonli hujjatli romanga aylanishida qator yozuvchilar hissa qo'shganlar, jumladan, Truman Kapotening “In Cold Blood” (“Sovuqqonlik bilan”, 1966) asari, Vincent Bugliosining “Helter

Skelter', Norman Meilerning "Executioner's Song" (1979) romanlari muhim rol o'ynagan. Yuqorida sanab o'tilgan asarlarning umumiy jihati shundaki, ularda voqealar markazida vahshiy jinoyatchilar turadi. Qotillarni asosiy obraz qilish vositasida yozuvchilar jinoyat motivlarini, qotillarning psixologik portretini tiklab beradilar. Jinoyatlarga bag'ishlangan sanoqsiz maxsus televizion kanallarning mavjudligi, true crime asarlarning tez bestsellerga aylanishi ushbu jarning mashhurligini tasdiqlaydi. 2010-yilda Illinois universiteti olib borgan tadqiqotlarda Amazondagi "true crime" janriga mansub kitoblarga taqriz (bookreview) beruvchilarning 70 foizi 25-45 yoshlardagi ayollar ekan.

Zamonaviy psixologik triller janrida ham qator aksilqahramonlar yorqin ajralib turadi. Amerikalik romannavis Tomas Harrisning Gannibal Lekter obrazini bilmagan kitobxon topilmaydi. Xususan, Harris kitoblarining ekranizatsiyasi Lekter obraziga jahonshumul shuhrat olib keldi. "Qo'zichoqlar sukunati" asarining mislsiz shon-shuhratining salmoqli hissasi, shubhasiz, Gannibal Lekter obraziga to'g'ri keladi. Latofatli, maftunkor, yuqori salohiyatli yovuz maxluq obrazi kitobxon ongida ham kuchli estetik zavq, ham hayrat uyg'otsa, Lekterning beshavqat tubanligi, cheksiz pastkashligi kishi shuurini seskantirib yuboradi. Tomas Harris bunday murakkab, ulug'vorlik va tubanlikni o'zida mujassam qila olgan obrazni yaratishda qanday badiiy priyomlarni qo'llaganligi, qanday psixologik metodlarga tayanib obrazni shakllantirganligi diqqatni tortadi. Patrisiya Haismitning Tom Ripli ("The Ripliad" romani, (1955), Bret Ellisning "American Psycho" (2000) trilleri aksilqahramoni Patrick Bateman, Jef Lindsayning "Darkly Dreaming Dexter" (2004) asaridagi Dekster Morgan obrazlari mualliflarga katta e'tirof olib kelgan. Shuningdek, psixologik trillerning sub-janri sifati "Psychopath Fiction"(Bentham, 2014) nomli yo'nalish shakllanmoqda. Bunday asarlar qahramonlari patologik ruhiyat va turli shaxsiyat buzilishlariga ega obrazlar. Ruhshunos olimlarning e'tirof etishlaricha, kitobxonlarni "Psychopath Fiction" asarlariga jalb qiladigan holat ularning anomal tafakkur tarziga, tabu mavzularning badiiy adabiyotda keng tasvirlab berilishi bilan izohlanadi.

Bunday tendensiyani naturalizm boshlab bergan deyishimizga asos mavjud. Aynan naturalizm adabiyoti inson ruhiyatining murakkab va qorong'u tomonlarini kengroq tadqiq etgan. Jumladan, T.Drayzerning Klif Griffits, Kerri Miber, Frenk Kaupervud obrazlari aynan aksilqahramonlar edilar. "Amerika orzusining" salbiy jihatlarini tasvirlar ekan, Teodor Drayzer mazkur obrazlar shuhratga, boylik va muvaffaqiyat yo'lida axloqiy mezonlarga befarq bo'lganligi keyinchalik amerika fojiasiga aylanganligini ko'rsatib beradi. Jumladan, Klif Griffits ("Amerika fojiasi", 1925) badavlat qiz Sondraga uylanish orqali o'ziga yuqori tabaqa tomon yo'l ochmoqchi bo'ladi. Biroq homilador bo'lib qolgan Roberta Klifning yo'lida to'g'onoq edi. Yechim sifatida Klif qotillikka qo'l uradi: Robertani shavqatsizlarcha

o'ldiradi. "Baxtiqaro Kerri" (1900) asari voqealari markazida Kerri Miber turadi. Qishloqdan shaharga katta muvaffaqiyat izlab kelgan Kerri samimiy munosabatga ochiq emas. Xudbinligi, qalbida rahm va shafqat hissi bo'lmaganligi tufayli garchi o'zi orzu qilgan yutuqqa hamda farovon hayotga erishgan bo'lsa-da, yolg'izlikda hayot kechiradi. "Sarmoyador" (1912) asari aksilqahramoni bankirning o'g'li Frenk Kaupervud. Bu yigit katta biznes qurish yo'lida turli firibgarliklarga qo'l uradi. Hatto uylanish ham Frenk uchun ijtimoiy-iqtisodiy lift vazifasini o'tashi kerak, shuning uchun yoshi katta beva ayol bilan turmush quradi. Vaqt o'tishi bilan u shahar g'aznachisi George Stener yordamida munitsipal mablag'larni noqonuniy ravishda sarmoya qilish orqali boylik orttiradi. Biroq noqonuniy ishlari Frenkni alaloqibat xarob qiladi.

MUNOZARALAR

Salma modernizm va postmodernizm ijodiy metodlari shuningdek, adabiyotdagi ekzistensializm falsafiy oqimining aksariyati aksilqahramonlar ekanligini ta'kidlaydi (Salma, 2008). Garchi aksilqahramon obrazlar avvalgi asrlar adabiyotida ham mavjud bo'lgan edilar, jumladan romantizmga ko'p uchraydigan serhissiyot, isyonchi *Bayroncha qahramon* (Bayronic hero), biroq ularning salmog'i ijobiy xususiyatlari bilan tasvirlangan qahramonlardan ancha kam edi.

Jamiyat qadriyatlariga befarq, hissiy sovuqligi bilan ajralib turadigan ekzistensial aksilqahramon obrazi Aber Kamyuning "Begona" asarida o'z aksini topgan. Mersoning ruhiy portreti chuqur befarqlik va ichki begonalashuv bilan xarakterlanadi. Merso jamiyat qabul qilgan axloqiy va hissiy me'yorlarga mos kelmaydigan shaxs sifatida tasvirlanadi: u onasining o'limiga ham sovuqqonlik bilan qaraydi, atrofdagi voqealarga kuchli emotsional munosabat bildirmaydi va hayotga nisbatan ma'lum darajada loqaydlik bilan yashaydi. Uning ongida mavjud bo'lgan bu befarqlik aslida inson hayotining ma'nosizligi va absurdligini anglash bilan bog'liq bo'lib, qahramon voqelikni hech qanday soxta axloqiy niqobsiz qabul qiladi. Shu bois Merso obrazi modernizm adabiyotida jamiyat qadriyatlari bilan ziddiyatga kirishgan, ichki bo'shliq va begonalashuvni o'zida mujassam etgan antiqahramonning yorqin namunasi. Shuningdek ommaviy mutolaa uchun mo'ljallanmagan modernizmga oid roman "Uliss sarguzashtlari" ham yana bir yorqin antiqahramonni taqdim etgan. Blum jasur ham emas, qudratli ham emas; u Dublinda istiqomat qiluvchi oddiy reklama agenti bo'lib, uning kundalik hayoti shahar bo'ylab yurish, dafn marosimida qatnashish, gazetalar o'qish va turli mayda ishlarni bajarish kabi takrorlanuvchi mashg'ulotlardan iborat. Bu oddiylik an'anaviy qahramonlik modeli bilan keskin kontrast hosil qiladi. Blumning biqiq maishiy hayoti uzoq safarga otlangan Odisseyning qahramonliklariga fonida parodiya bo'lib ko'rinadi. Blum obrazi, asosan, adabiy modernizmga xos bo'lgan *ong oqimi (stream of consciousness)* usuli orqali ochib beriladi. O'quvchi uning eng yashirin fikrlari,

ishonchsizliklari, ong osti xayollari va xotiralariga guvoh bo‘ladi. Bunday psixologik ochiqlik qahramonning yolg‘izlik, jinsiy ishtiyoq va hissiy noziklik kabi zaif tomonlarini oshkor etadi. Natijada u sun‘iy ravishda ideallashtirilgan qahramon obrazidan ancha yiroq ekanligi namoyon bo‘ladi.

Roland Bartning “Muallifning o‘limi” (1967) asari nafaqat muallifni postmodern asardagi o‘rnini kamaytirdi, balki voqealar rivojiga, qahramon xatti-harakatlariga kitobxonni ta’sirini oshirdi. Qahramonning ahamiyatini, mazmun-mohiyatini muallif intensiyasi emas, kitobxonning badiiy obrazga reaksiyasi, talqini belgilaydigan bo‘lib qoldi. Postmodernizm nazariyotchisi Jan Fransua Liotar “*yirik hikoyalarga ishonchsizlik*” (“Incrudulity towards metanarratives”), Jan Bodriyarning *giper reallik* kabi tuchunchalari ta’sirida voqelikning “sun‘iy nusxasi” bo‘lgan *simulyakr*, to‘qima va reallikning farqini anglamaydigan “*beqaror roviy*” (unreliable narrator) postmodern adabiyotida o‘ziga xos aksilqahramonni shakllantirdi. J.Derridaning *dekonstruksiya* nazariyasi an’anaviy qahramon siymosiga eng katta zarba berdi. Dekonstruksiya badiiy adabiyotdagi *binary oppozitsiyalarga* – qahramonlarning ijobiy va salbiy qahramonlarga bo‘linishiga, yovuzlik va ezgulik o‘rtasidagi azaliy kurashga nuqta qo‘ydi. Endi bir badiiy obraz ayni paytda ham daho ham yovuz bo‘la oladi. Postmodern qahramonning izchil qadriyatlar yo‘q, aksincha, u kuchli ichki ziddiyatlarga to‘la, *axloqiy ambivalentlikka* ega, o‘ziga va olamga *kinoya* bilan boqadigan, shaxsiyati butun emas, ya’ni bo‘laklarga bo‘lingan (*fragmentatsiya*) shaxs sifatida gavdalanadi. Patrik Zyuskindning Jan-Batist Grenuy (“Ifor”) obrazi, E.Berdjessning Aleks (“A Clockwork Orange”, 1962), I.Benksning Frenk (“The Wasp Factory”, 1984), Don Delilloning Jek Gledni (“White Noise”, 1985), Li Harvi Osvald (“Libra”, 1988) kabi qahramonlar zamonaviy adabiyotda aksilqahramon tipining turli ko‘rinishlarini namoyon etadi. Ularning barchasi an’anaviy qahramonlardan farqli ravishda murakkab psixologik tuzilishga ega bo‘lib, ko‘pincha jamiyatning axloqiy me’yorlariga zid harakat qiluvchi, ichki ziddiyatlarga boy shaxslar sifatida tasvirlanadi. Bunday obrazlar orqali yozuvchilar inson tabiatining qorong‘I qatlamlarini, shaxsning jamiyat bilan ziddiyatini hamda zamonaviy sivilizatsiya sharoitida yuzaga keladigan ma’naviy bo‘shliqni ochib berishga intiladilar. Mazkur aksilqahramonlar ko‘pincha jamiyatdan begonalashgan, hatto antisotsial xulq-atvorli, o‘zining ichki dunyosi va individual ehtirolari bilangina yashovchi shaxslar sifatida gavdalanadi; shu bois ular orqali adabiyotda inson psixologiyasining murakkab, ba’zan esa fojiviy jihatlari badiiy talqin etiladi.

Chunonchi, postmodern qahramon haqida yozar ekan A.Kucherova mavzuga doir maqolasida “Postmodernizm psixopatlarni qahramon obrazlarga aylantirdi” (Kucherova, 2019), degan fikrni ilgari suradi. Maqolada “Ifor” romani aksilqahramoni tahlilga tortilgan. Adabiyotdagi psixopat shaxs obrazining yorqin va

mumtoz misoli – Jan-Batist Grenuy. Patrik Zyuskindning 1985-yilda yaratilgan romani qahramoni. Hidlarni farqlashda favqulodda iste’dodga ega bo‘lgan “zolim daho” Grenuyning ongida, borlig‘ida vijdon, rahm va shafqat, jazodan qo‘rqish, sevisish va sevilish hislari mavjud emas. Zuskind daho va psixopat obrazlarining sintezidan yangi bir timsol yaratgan, deb xulosa qilgan maqola muallifi. Xushbo‘y hidni qo‘lga kiritish ilinjida bir necha qizlarning qotiliga aylangan Grenuy uchun hech qanday muqaddas tushuncha yo‘q. Grenuy obrazi bilan yozuvchi psixopat shaxs tafakkur tarzini, motivlarini, xulq-atvorining portretini butun bo‘y-basti bilan ifodalab beradi.

NATIJALAR

Zamonaviy ijodiy metodlarda nafaqat badiiy adabiyotda, balki san’atning boshqa turlarida ham aksilqahramonlar yetakchi mavqega ega bo‘ldi. DC Comics tomonidan 1939-yildan boshlab nashr bo‘la boshlagan *“Batman” komikslari* ommaviy madaniyatda butun boshli sanoatga aylangan. Betman jinoyatchilarga qarshi kurashuvchi, ammo qonun doirasidan tashqarida harakat qiluvchi qasoskor sifatida namoyon bo‘ladi. Betman jinoyatchilarga qarshi kurashda o‘ta shafqatsiz bo‘lib, o‘zining yuqori darajadagi salohiyati, turli jang san’atlari bo‘yicha mahorati, ilm-fan va texnika sohasidagi bilimlari, shuningdek, bukilmas irodasi bilan dushmanlarini mot qiladi. Betman haqidagi komikslarda shuning uchun zo‘ravonlik lavhalari, jangovar kayfiyat ustunlik qiladi. 1954-yilda nashr etilgan “Seduction of the Innocent”(“Beg‘uborlarga salbiy ta’sir”) (Wertham, 1954), nomli asarda ruhshunos olim Fredrik Wertham mazkur komikslarni keskin tanqid qilgan. Olimning fikricha, bolalar komikslarda ko‘rgan voqealarga, hatto jinoyatlarga ham taqlid qilishi mumkin. Detektiv, triller va horror janridagi komikslarning mashhurligi ortgan davrda ayrim tadqiqotchilar o‘smirlar o‘rtasida jinoyatchilikning, antisotsial harakatlarning ko‘payishini ham komikslar bilan bog‘lashga urinishgan. Qo‘lga olingan ba’zi yosh jinoyatchilar komiks o‘qiganini tan olgani sababli, bu holat “umumiy sabab” sifatida talqin qilingan, natijada Comics Code Authority nomli senzura tizimini joriy etilgan.

Noyub shifokor-tashxischi Gregori House va uning jamoasi haqidagi “Doktor House” amerika teleseriali millionlab tomoshabinlarning e’tirofiga sazovor bo‘lgan. Gregory House ham an’anaviy klassik qahramonlardan farqli ravishda ulug‘vor fe’l-atvoriga ega emas; u serialda o‘zining nihoyatda yuqori salohiyati, tibbiy diagnostika sohasidagi chuqur bilimlari, analitik-deduktiv fikrlash qobiliyati va noodatiy muammolarni hal qilish usullari bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, u satirik obraz, qo‘pol va jamiyat qoidalariga ko‘pincha bo‘ysunmaydigan shaxs sifatida tasvirlanadi; bemorlarni davolash yo‘lida axloqiy me’yorlar va kasbiy qoidalardan chetga chiqishi ham mumkin. Misanthropiya, og‘riq qoldiruvchi dorilarga qaramlik va insonlarga nisbatan sovuqqon munosabat kabi ziddiyatli xususiyatlari uni

zamonaviy ommaviy madaniyatdagi eng mashhur antiqahramonlardan biriga aylantiradi.

Zamonaviy pop-madaniyatdagi antiqahramon modelining yana bir ko‘rinishi “The Simpsons” multi-serialidagi Homer Simpson bo‘lib, u ko‘pincha komik antiqahramon sifatida talqin qilinadi. Homer dangasa, ba‘zan mas’uliyatsiz, tez g‘azablanadigan va ko‘pincha noto‘g‘ri qarorlar qabul qiladigan inson sifatida tasvirlanadi. Shunga qaramay, u oilasini yaxshi ko‘radi va ayrim vaziyatlarda yaxshi niyat bilan harakat qiladi. Aynan shunday kamchiliklar bilan birga insoniy iliqlikdan iborat ziddiyatli xususiyatlari uni sevimlikomik antiqahramonga aylantiradi. Shuningdek, uning o‘g‘li Bart Simpson ham qisman antiqahramon xususiyatlariga ega: u maktab qoidalarini buzadi, o‘qituvchilarni masxara qiladi va doimo sho‘xlik qiladi. Biroq u to‘liq salbiy obraz emas, balki jamiyat qoidalariga qarshi turadigan isyonkor, hazil-mutoyibali qahramon sifatida tasvirlanadi.

Rik Sanchez (“Rick and Morty”) nihoyatda aqlli, biroq nigilistik va mas’uliyatsiz olim bo‘lib, ko‘pincha axloqiy me‘yorlarni buzadigan anarxist obraz. Odamsimon ot – BoJack Horseman (“BoJack Horseman”, 2014–2020) esa mashhurligini yo‘qotgan aktyor bo‘lib, ichkilikbozlik, depressiya va xudbinlik bilan kurashadigan murakkab antiqahramon sifatida tasvirlanadi. Erik Kartman (“South Park”) esa xudbin, manipulyativ va ko‘pincha axloqiy chegaralarni buzadigan narsist bola bo‘lsa ham, serialning markaziy komik figurasi hisoblanadi. Shuningdek, Layt Yagami (“Death Note”) o‘zini adolat o‘rnatayotgan deb hisoblaydigan, ammo minglab odamlarni o‘ldiradigan murakkab antiqahramon sifatida mashhur bo‘lgan. Yana bir misol Eren Yeager (Attack on Titan) bo‘lib, u dastlab qahramon sifatida ko‘rinsa-da, keyinchalik radikal va bahsli qarorlar qabul qiladigan anime antiqahramonga aylanadi. Shu kabi obrazlar animatsiyada antiqahramon modeli qanchalik keng tarqalganini va zamonaviy tomoshabinlarni aynan murakkab, ziddiyatli xarakterlar ko‘proq qiziqtirishini ko‘rsatadi.

MUNOZARALAR

Aksilqahramon obrazining ommaviy madaniyatda, media va kinomatografiyadagi talqinini P.Jonason “The Antihero in Popular Culture: Life History Theory and the Dark Triad Personality Traits” nomli maqolasida evolyutsion psixologiya nuqtayi nazaridan tahlil qilgan. Jonasonning fikricha, James Bond, Betman, Maykl Korleone (“Cho‘qintirgan ota”), Gregori Xaus (“Doktor Xaus”) kabi aksilqahramonlar “Qora triada”ga xos xususiyatlarni namoyon etadi. Mazkur o‘rinda shuni aytish lozimki, “Qora triada” insonlarda uchraydigan uch xil shaxs buzilishlarini qamrab oluvchi tipologiya. Ushbu shaxslar tipologiyasiga narsistlar, makiavilistlar va psixopatlar kiritilgan. Bunday shaxs tiplarida jamiyat uchun xavfli, zararli xususiyatlar yetakchi bo‘ladi. P.Jonasonning xulosa qilishicha, “Qora triada”ga mansub xususiyatlarni insoniyat favqulodda qiyin ekologik sharoit

va tahlikali ijtimoiy vaziyatlarda tirik qolish hamda nasl qoldirish uchun orttirgan. Olim buni “fast life strategy” (tezkor hayot strategiyasi) deb ataydi. Ehtimol ijtimoiy- iqtisodiy, siyosiy beqarorlik muhiti ayrim jamiyatlarda tezkor hayot strategiyasini, makiavelizmni yashab qolishning muhim vositasiga aylantirayotgan ko‘rinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. University of Illinois News Bureau. Empathy and evil characters in literature [Electronic resource]. – Available at: <https://news.illinois.edu/view/6367/205718>
2. (accessed: 16.04.2026).
3. Bentham A. A. Empathy for the devil: The poetics of identification in psychopath fiction: Doctoral dissertation. – Salford: University of Salford, 2014. – 300 p.
4. Salma L. M. Antiheroes in modern literature: Master’s thesis. – Dhaka: BRAC University, 2008. – 70 p.
5. Kucherova A. Psychopath as a new hero in postmodern literature: Based on a study of transformation of the image of the genius in Patrick Süskind’s novel “Perfume: The Story of a Murderer” // *Chelovek*. – 2019. – Vol. 30, No. 5. – P. 174–189.
6. Wertham F. Seduction of the Innocent. – New York: Rinehart & Company, 1954. – 397 p.
7. Banks I. The Wasp Factory. – London: Macmillan, 1984. – 244 p.
8. Burgess A. A Clockwork Orange. – London: Heinemann, 1962. – 192 p.
9. Camus A. L’Étranger (The Stranger). – Paris: Gallimard, 1942. – 186 p.
10. DeLillo D. White Noise. – New York: Viking Press, 1985. – 326 p.
11. DeLillo D. Libra. – New York: Viking, 1988. – 456 p.
12. Harris T. Red Dragon. – New York: G. P. Putnam’s Sons, 1981. – 348 p.
13. Harris T. The Silence of the Lambs. – New York: St. Martin’s Press, 1988. – 367 p.
14. Puzo M. The Godfather. – New York: G. P. Putnam’s Sons, 1969. – 448 p.
15. Süskind P. Perfume: The Story of a Murderer. – Zürich: Diogenes, 1985. – 255 p.
16. Jonason P. K., Webster G. D., Schmitt D. P., Li N. P., Crysel L. The antihero in popular culture: Life history theory and the dark triad personality traits // *Review of General Psychology*. – 2012. – Vol. 16, No. 2. – P. 192–199. – DOI: <https://doi.org/10.1037/a0027487>
17. Akhmedova A. K. New approaches to psychological affinities in literature // *International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECS)*. – 2022. – Vol. 14, No. 3. – P. 107–112. – DOI: [https://doi.org/10.00.00.\(23\)](https://doi.org/10.00.00.(23))

REFERENCE

1. <https://news.illinois.edu/view/6367/205718>
2. Bentham, A. A. (2014). *Empathy for the devil: The poetics of identification in psychopath fiction* (Doctoral dissertation, University of Salford). University of Salford.
3. Salma, L. M. (2008). *Antiheroes in modern literature* (Master's thesis, BRAC University). BRAC University.
4. Kucherova, A. (2019). Psychopath as a new hero in postmodern literature: Based on a study of transformation of the image of the genius in Patrick Süskind's novel *Perfume: The story of a murderer*. *Chelovek*, 30(5), 174–189.
5. Wertham, Fredric (1954). *Seduction of the Innocent*. Rinehart & Company. pp. 192, 234–235.
6. Banks, I. (1984). *The wasp factory*. Macmillan.
7. Burgess, A. (1962). *A clockwork orange*. Heinemann.
8. Camus, A. (1942). *The stranger*. Gallimard.
9. DeLillo, D. (1985). *White noise*. Viking Press.
10. DeLillo, D. (1988). *Libra*. Viking.
11. Harris, T. (1981). *Red dragon*. G. P. Putnam's Sons.
12. Harris, T. (1988). *The silence of the lambs*. St. Martin's Press.
13. Puzo, M. (1969). *The godfather*. G. P. Putnam's Sons.
14. Süskind, P. (1985). *Perfume: The story of a murderer*. Diogenes.
15. Jonason, P. K., Webster, G. D., Schmitt, D. P., Li, N. P., & Crysel, L. (2012). The antihero in popular culture: Life history theory and the dark triad personality traits. *Review of General Psychology*, 16(2), 192–199. <https://doi.org/10.1037/a0027487>
16. Akhmedova, A. K. (2022). New approaches to psychological affinities in literature. *International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECS)*, 14(3), 107–112. [https://doi.org/10.00.00.\(23\)](https://doi.org/10.00.00.(23))